

20-Fevral, 2026-yil

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – KELAJAK
POYDEVORI**

Axmedov Yusuf Maxmudovich

*Termiz davlat pedagogika instituti
Sport faoliyati va Chaqiriqqacha harbiy
ta`lim kafedra o`qituvchisi*

Xusanov Sarvar

Normo`minov Suhrobbek
TerDPI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid tushunchalar, qarashlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, san‘at sohasi, estetik ehtiyojlar, madaniy-ma’rifiy faoliyat.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy-ma’rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so‘z bilan aytganda ma’naviymafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib,insonlarni ezgulik sari boshladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev - Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy etuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda», - deb bu borada qilishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko‘rsatmalarni berib o‘tdilar.

Bu so‘zlar zamirida hali oldimizda bu sohada juda ko‘p ishlarni qilishimiz lozimligini hayotni o‘zi isbotlamoqda. - Maqsadimizga erishish yangi demokratik jamiyatni qurish, islohatlarning taqdirini qanday kuchlarga ega ekanliklarimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday g‘oyalarga e’tiqod qilishiga, ma’naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog‘liqdir»- deydi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov. Shu bois yoshlarning ma’lumot olish imkoniyatini oshirish, milliy umuminsoniy tiklanish g‘oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shuning uchun bugungi kunda o‘zbek xalqining asrlar

davomida shakllangan umuminsoniy ma'naviyatini va milliy qadriyatlarini singdirish yoshlarni vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash madaniyat va san'at sohasining asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, madaniyat va san'at jamiyat hayotining muhim ajralmas qismi bo'lib, u inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Milliy Vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat ahloqiyma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, qarashlar yig'indisi tushuniladi. Ta'lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tarbiyalash ta'limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda O'zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o'zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo'lgan tuyg'ular, fazilatlar o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyatda o'z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimizning ijod namunalariyu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir.

Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg'usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O'sha tafakkur qilmaydigan jonzotlar ham, hasharotlar ham o'zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aqlu zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo'lgan insonda esa bu tuyg'u yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashkbbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko'rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog'onalarini ko'rib guvohi bo'lib turibmiz. Insonlarning tinchhotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro'yini ko'tarish, Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, -xalqni rozi qilish» yo'lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta ustivor yo'nalishlari mazmunida ham shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon

20-Fevral, 2026-yil

turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro‘yini oshirish va boshqa masalalar turibdi. Bunday ulug‘ ishlarni amalga oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli insonlarning fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. “Vatan” - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, - «Ona yurt» degan ma‘noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to‘kilgan, avlod va ajdodlari tug‘ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma‘naviy tushunchalarni anglatadi. -Vatanparvarlik - deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ma‘naviy - axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik - ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o‘tmishi va kelajagi, xalq urfodatlarini, kuy-qo‘shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir». Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir.

Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta‘lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o‘quvchilarda barcha qobiliyatni o‘sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ilg‘or g‘oyalarni davrimizda roy berayotgan o‘zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o‘g‘il va qizlarda g‘oyaviy e‘tiqodni ma‘naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo‘lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga hayajonli ta‘sir ko‘rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko‘pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaranganda, bu to‘g‘ri. Ammo, biz bu tuyg‘uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma‘noda qo‘llagan bo‘lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Vatan tushunchasi keng va tor ma‘nolarda qo‘llash mumkin. Keng ma‘nodagi tushunchasi: Vatan - bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azalazaldan iqtiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, tor ma‘nodagisi esa kishi tug‘ulib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutiladi. O‘zbeklarda falonchi vatanli bo‘ldi, deyilganda o‘sha odam uy-joyli, boshpanali bo‘ldi degan ma‘no ham shu nuqtai nazardan aytilgan bo‘lsa kerak. Alisher Navoiy ijodida Vatan tushunchasi keng ma‘nolarda qo‘llanilgan. Bir ta‘rifida Vatan so‘zini geografik ma‘noda, ya‘ni, tug‘ilib, o‘sib-ulg‘aygan joy mazmunida tadbiiq etgan. Masalan, shoir ustodi Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan she‘riy maktubida: Ki bo‘lmoq vatan ichra dushvor edi, Ko‘ngulga jafo daf‘i ozor edi, - derkan, ona shahri Hirotnie‘tiborga olgan. Ustod Maqsud Shayhzoda aytganidek, Navoiy «hatto Xuroson saltanatining yiroq viloyatlariga borganda ham o‘zini “g‘urbatda” his etgan», degan qarashlar mavjud. Navoiy 1465-66 yillarga qadar, asosan, Hirot va Mashhadda yashagan. She‘rdagi “g‘urbat” so‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu she‘rni u o‘z vatani Hirotida emas, balki g‘urbatda - musofirlikda, demak, Mashhadda yozgan bo‘lishi kerak, degan taxminlar ham mavjud «Navoiyning o‘z tug‘ilgan ona shahri Hirotidan, qavmu qarindoshlaridan uzoq Mashhadda kechirgan yillari ancha mashaqqatli bo‘lgan bo‘lsa kerakki, - deydi professor Abduqodir Hayitmetov, - u «Majolisun nafois»da u yillarni eslab o‘zini “g‘arib” deb ataydi va kasal bo‘lib qolganda «bir joyda yiqilib qolganini aytadi». Tadqiqotchining taxminicha, ruboiy «shu vaqtlarda (ya‘ni Mashhadda - I. H.) yozilgan bo‘lsa ajab emas». Demak,

20-Fevral, 2026-yil

“g‘urbat” va “g‘arib” to‘rtlikdagi “belgi” so‘zlar bo‘lib, ruboiyning yaratilgan vaqti, bosh g‘oyasi va lirik qahramonning qayg‘uli holatini anglashga «ochqichidir. Darhaqiqat, xuddi shunday: G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish... Shu misraning o‘zi go‘yo tugal mazmunli she‘r.

Uni o‘qigan zahoti, yurtidan yiroqlardagi kishining qismati tasavvurda qariyb to‘la jonlanadi. Vatandan judolig‘urbat. G‘urbatda yashash - g‘ariblik. G‘arib - shodlikdan mahrum bir bechora. Ruboiyning oxirgi baytidagi obrazli qiyos Vatan va farzand o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur isbotlaydi. Barkamol avlod ta‘lim va tarbiyasi bilan bog‘liq qarashlarni Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida juda ko‘p uchratamiz. Ma‘lumki, Navoiy ham ijodkor, ham amaldor sifatida el osoyishtaligini saqlash, qishloq va kentlarni obodonlashtirish, yoshlarni bilim olishga chorlash uchun amaliy sharoitlar yaratishda tinmas va tolmas tashabbuskor bo‘lgan.

FOYDALANAYOTGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, PF4947-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-406-son).
3. Sayfullayev B., Rustamov V. (2016). Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent,
4. Xoji Ahmadjon Bobomurod. (2008). Islom odobi va ahloqi. Toshkent, 15 b. 4. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A.
5. Talaboev, A. (2021). O‘ZBEK XALQ MUSIQA IJROCHILIGI SAN’ATIDA MAQOM JANRINI TIKLASH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.
6. Nabijonovich, T. A. (2022). RAJABIYLAR SULOLASIGA BIR NAZAR.
7. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN’ATI. MAQOM SAN’ATINI O‘RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O‘RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO‘LGAN JIHATLAR.
8. Talaboyev, A. N. (2021).
9. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R.
10. Ahmedov, R. (2021). SAN’ATGA BAXSHIDA UMR.
11. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. International Journal of Culture and Modernity, 11, 412-418.
12. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. An International Multidisciplinary Research Journal.
13. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A look at the regional seasonal folklore and their origin. The role and importance of folklore in the development of dance art. European Journal of Arts, (1), 121-124.
14. Shermatova, X. (2021). MAKTABLARDA O ‘QITILAJAK MUSIQA TA’LIMIGA BIR NAZAR: MUSIQA TA’LIMINING SHAKLI VA USULLARI.